




*(2022- yil yanvar-aprel oylari
uchun dastlabki ma'lumot)*

NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



Navoiy viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yil yanvar-aprel oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **357,6** mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **94,2** % ni tashkil etdi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI


(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)

	2021- yil	2022- yil	O'tgan yilga nisbatan, % da	Jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	379,7	357,6	94,2	x
Eksport 	139,0	174,3	125,4	100,0
 <u>tovarlar</u>	136,0	172,9	127,1	99,2
 <u>xizmatlar</u>	3,0	1,4	46,0	0,8
Import 	240,7	183,3	76,2	100,0
 <u>tovarlar</u>	226,5	178,2	78,7	97,2
 <u>xizmatlar</u>	14,2	5,1	36,1	2,8
Saldo 	- 101,7	- 9,0	x	x

Ma'lumot uchun: Navoiy viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Navoiy viloyati jahonning **66** ta mamlakatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (**20,6 %**), Kanada (**17,9 %**), Xitoy Xalq Respublikasida (**15,3 %**), Qozog'istonda (**12,9 %**) va Fransiyada (**9,4 %**) qayd etilgan.

NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR (2022- yil yanvar-aprel, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



Davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Rossiya Federatsiyasi	73,7	36,1	37,6	20,6
Kanada	64,1	61,8	2,3	17,9
Xitoy Xalq Respublikasi	54,8	1,9	52,9	15,3
Qozog'iston	46,0	5,9	40,1	12,9
Fransiya	33,5	32,5	1,0	9,4
Turkiya	20,4	11,9	8,5	5,7
Hindiston	9,0	-	9,0	2,5
Koreya Respublikasi	8,0	0,1	7,9	2,2
Litva	5,3	4,5	0,8	1,5
Qirg'iz Respublikasi	5,2	4,3	0,9	1,4

So'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston va Qirg'iz Respublikasi bilan TSA da so'ngi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'ngi uch yilda TSA Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Afg'oniston, Turkmaniston va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya Federatsiyasi, Kanada, Xitoy Xalq Respublikasi, Fransiya, Turkiya, Hindiston, Koreya Respublikasi, Litva, Germaniya, Eron Islom Respublikasi va Yaponiya hissasiga to'g'ri kelgan.

NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)



Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Rossiya Federatsiyasi	47,1	74,4	73,7
<i>Eksport</i>	13,1	10,2	36,1
<i>Import</i>	34,0	64,2	37,6
Kanada	23,3	67,7	64,1
<i>Eksport</i>	23,3	65,1	61,8
<i>Import</i>	-	2,6	2,3
Xitoy Xalq Respublikasi	41,5	54,6	54,8
<i>Eksport</i>	2,1	32,1	1,9
<i>Import</i>	39,4	22,5	52,9
Qozog'iston	21,2	21,0	46,0
<i>Eksport</i>	1,7	4,0	5,9
<i>Import</i>	19,5	17,0	40,1
Fransiya	66,1	1,6	33,5
<i>Eksport</i>	65,5	-	32,5
<i>Import</i>	0,6	1,6	1,0
Turkiya	14,5	24,8	20,4
<i>Eksport</i>	7,8	12,0	11,9
<i>Import</i>	6,7	12,8	8,5
Hindiston	1,7	0,9	9,0
<i>Eksport</i>	-	0,1	-
<i>Import</i>	1,7	0,8	9,0
Koreya Respublikasi	29,7	11,1	8,0
<i>Eksport</i>	-	-	0,1
<i>Import</i>	29,7	11,1	7,9
Litva	34,8	22,6	5,3
<i>Eksport</i>	1,5	3,7	4,5
<i>Import</i>	33,3	18,9	0,8
Qirg'iz Respublikasi	13,5	1,7	5,2
<i>Eksport</i>	13,4	1,4	4,3
<i>Import</i>	0,1	0,3	0,9

NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)



Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Afg'oniston	0,2	2,1	5,1
<i>Eksport</i>	0,2	2,1	5,1
<i>Import</i>	-	-	-
Germaniya	4,0	3,9	4,8
<i>Eksport</i>	0,1	-	-
<i>Import</i>	3,9	3,9	4,8
Turkmaniston	3,5	2,8	4,6
<i>Eksport</i>	3,3	2,1	3,6
<i>Import</i>	0,2	0,7	1,0
Eron Islom Respublikasi	1,0	2,5	4,0
<i>Eksport</i>	-	0,1	0,4
<i>Import</i>	1,0	2,4	3,6
Yaponiya	2,5	12,2	1,9
<i>Eksport</i>	0,2	-	-
<i>Import</i>	2,3	12,2	1,9
AQSH	14,1	28,7	1,8
<i>Eksport</i>	-	0,7	0,2
<i>Import</i>	14,1	28,0	1,6
Tayvan	-	-	1,8
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	-	-	1,8
Tojikiston	0,1	0,6	1,6
<i>Eksport</i>	0,1	0,5	1,6
<i>Import</i>	-	0,1	-
Finlyandiya	2,7	0,8	1,5
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	2,7	0,8	1,5
Singapur	0,7	1,7	1,3
<i>Eksport</i>	0,5	1,7	1,3
<i>Import</i>	0,2	-	-

NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-aprel)



Tuman va shahar nomi	Ming AQSH dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	357 596,3	94,2
Navoiy sh.	182 251,4	74,7
Zarafshon sh.	3 104,3	48,6
G'ozg'on sh.	310,2	2,7 b.
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	120 919,3	139,1
Konimex	204,3	27,6
Qiziltepa	23 845,2	3,5 b.
Navbahor	11 477,8	141,4
Nurota	3 006,6	67,2
Tomdi	250,8	8,3
Uchquduq	8 907,6	3,3 b.
Xatirchi	2 848,6	21,6
Bo'linmaydigan hajm	470,2	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari

Navoiy sh. – 182 251,4

Karmana t. – 120 919,3

Qiziltepa t. – 23 845,2

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari

G'ozg'on sh. – 310,2

Tomdi t. – 250,8

Konimex t. – 204,3


Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **51,0 %** ulush bilan **182 251,4** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Konimex tumani **0,1 %** ulush bilan **204,3** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022- yil yanvar-aprel oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **37,2 %** ni tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2022- yil yanvar-aprel oylarida 2021- yilning shu davriga nisbatan **85,8 %** ni, jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi **62,8 %** ni tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI

(2022- yil yanvar-aprel)



Hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksporti bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport hajmi **174,3** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. 2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **125,4** % ni tashkil etdi.

XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2022- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



Eksport tarkibida asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**56,5** %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**19,9** %), nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari (**14,6** %) hissasiga tog'ri kelmoqda.

NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (yanvar-aprel, yillar kesimida)




XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan % da
	2021	2022		
Jami eksport	139,0	174,3	125,4	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	5,3	6,8	129,3	3,9
Ichimliklar va tamaki	-	0,1	-	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,6	25,5	7,1 b.	14,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,3	1,0	77,2	0,6
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	93,0	98,6	106,1	56,5
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	28,2	34,6	122,8	19,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,4	1,0	2,4 b.	0,6
Turli xil tayyor buyumlar	4,2	5,3	125,7	3,0
Xizmatlar	3,0	1,4	46,0	0,8

2022- yilning yanvar-aprel oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida 2021- yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar qayd etildi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2021- yilning mos davriga nisbatan noziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari, mashinalar va transport asbob-uskunalari, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, turli xil tayyor buyumlar hamda asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlarining eksport tarkibida o'sish kuzatildi.




NAVOIY VILOYATINING EKSPORT HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)




Navoiy viloyatida 2022- yil yanvar-aprel oylarida eksport hajmi **174,3** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-aprel, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2022- yilning yanvar-aprel oylarida MDH mamlakatlariga **52,5** mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **30,1** % ini tashkil etdi.

NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-aprel, % da)



2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Kanada (eksport umumiy hajmining **35,5** %), Rossiya Federatsiyasi (**20,7** %), Fransiya (**18,7** %), Turkiya (**6,8** %), Qozog'iston (**3,4** %), Afg'oniston (**2,9** %) va Litva (**2,6** %) saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi **90,6** % ni tashkil etmoqda.

**NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI
VA O'SISH SUR'ATLARI** (yanvar-aprel, yillar kesimida)



Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'tgan yilga nisbatan, % da	O'rni
	2021	2022		
Kanada	65 131,3	61 788,1	94,9	1
Rossiya Federatsiyasi	10 184,3	36 061,2	3,5 b.	2
Fransiya	-	32 542,1	-	3
Turkiya	11 989,2	11 864,0	99,0	4
Qozog'iston	4 043,0	5 940,6	146,9	5
Afg'oniston	2 130,8	5 089,8	2,4 b.	6
Litva	3 716,5	4 511,2	121,4	7
Qirg'iz Respublikasi	1 439,6	4 308,7	3,0 b.	8
Turkmaniston	2 099,4	3 660,6	174,4	9
Xitoy Xalq Respublikasi	32 138,8	1 852,1	5,8	10
Tojikiston	524,3	1 581,9	3,0 b.	11
Singapur	1 727,2	1 292,5	74,8	12
Polsha	88,3	922,6	10,5 b.	13
BAA	603,4	504,5	83,6	14
Eron Islom Respublikasi	128,1	441,9	3,5 b.	15
Ukraina	689,0	324,8	47,1	16
Ozərbayjon	53,1	295,2	5,6 b.	17
Pokiston	100,0	230,1	2,3 b.	18
AQSH	651,1	214,0	32,9	19
Moldova Respublikasi	-	155,0	-	20

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Jumladan, hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksportida ishtirok etgan davlatlar soni **38** tani tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2022- yil yanvar-aprel)



Tuman va shahar nomi	Ming AQSH dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	174 270,0	125,4
Navoiy sh.	126 376,0	123,9
Zarafshon sh.	199,4	13,9
G'ozg'on sh.	308,5	7,8 b.
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	19 524,9	164,3
Konimex	169,4	123,4
Qiziltepa	14 478,7	3,7 b.
Navbahor	9 571,6	159,4
Nurota	1 361,5	98,8
Tomdi	109,6	37,3
Uchquduq	210,4	37,9
Xatirchi	1 781,1	16,6
Bo'linmaydigan hajm	178,9	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari

Navoiy sh. – 126 376,0

Karmana t. – 19 524,9

Qiziltepa t. – 14 478,7

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari

Zarafshon sh. – 199,4

Konimex t. – 169,4

Tomdi t. – 109,6

Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **72,5 %** ulush bilan **126 376,0** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyatda eksporti tarkibida eng quyi ulushni Tomdi tumani **0,1 %** ulush bilan **109,6** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORT DINAMIKASI

(yanvar-aprel, % da)

XSST tarkibi	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2,4	3,8	3,9
Ichimliklar va tamaki	-	-	0,1
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	10,6	2,6	14,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,1	0,9	0,6
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	69,3	66,9	56,5
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	13,5	20,3	19,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,7	0,3	0,6
Turli xil tayyor buyumlar	1,7	3,0	3,0
Xizmatlar	1,7	2,2	0,8

2022- yil yanvar-aprel oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi uch yil davomida eksport tarkibi dinamikasida asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari ulushi **6,4** punktga oshib **19,9** % ni, nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari tovarlari ulushi **4,0** punktga oshib **14,6** % ni tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI

(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)




XSST tarkibi	Kanada		Rossiya Federatsiyasi		Fransiya		Turkiya	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Jami eksport	65,1	61,8	10,2	36,1	-	32,5	12,0	11,9
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	-	-	0,6	0,1	-	-	-	0,2
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	-	-	-	20,6	-	-	0,9	1,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	-	-	0,2	-	-	1,1	0,8
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	64,7	61,7	-	-	-	32,5	-	-
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	0,4	0,1	6,2	10,1	-	-	8,6	9,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	-	-	-	-	-	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	-	-	3,0	4,5	-	-	-	-
Xizmatlar	-	-	0,4	0,6	-	-	1,4	0,5

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hamda nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari mahsulotlar kiradi.

XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2022- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)




Xizmatlar eksporti hajmi 1,4 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,8 % ini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 46,0 % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (78,5 %), safarlar (turizm xizmatlari) (11,5 %) va moliyaviy xizmatlar (10,0 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2022- yil yanvar-aprel, ming AQSH dollari)

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 2 090,4 ming AQSH dollar qiymati 2 572,6 tonna meva-sabzavot eksport qilingan hamda 2021- yilning mos davriga nisbatan 82,5 % ni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash jami eksport hajmida 1,2 % ni tashkil etmoqda. Shundan salmog'i yirik hududlarda meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti hajmi Qiziltepa tumanida 1 079,9 ming AQSH dollarini, Xatirchi tumanida 569,3 ming AQSH dollarini, Karmana tumanida 152,6 ming AQSH dollarini va Navbahor tumanida 147,3 ming AQSH dollarini tashkil etmoqda.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2022- yil yanvar-aprel)



Davlatlar	2021- yil			2022- yil		
	Tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi*, % da	Tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi*, % da
Afg'oniston	74,9	56,8	2,2	548,5	383,7	18,4
Qozog'iston	3 204,0	1 750,4	69,1	780,6	375,8	18,0
Eron Islom Respublikasi	124,0	128,0	5,1	358,0	372,5	17,8
Pokiston	25,0	99,9	3,9	99,6	230,1	11,0
Turkiya	-	-	-	142,3	158,9	7,6
Xitoy Xalq Respublikasi	128,0	119,5	4,7	102,0	149,2	7,1
Ukraina	-	-	-	189,0	116,3	5,6
Iroq	-	-	-	95,8	73,1	3,5
Polsha	-	-	-	84,2	72,7	3,5
Belarus Respublikasi	400,0	138,4	5,5	99,1	53,2	2,5
Rossiya Federatsiyasi	161,5	241,6	9,5	36,7	42,7	2,0
Bolgariya	-	-	-	21,0	31,5	1,5
Isroil	-	-	-	13,5	27,0	1,3
Tojikiston	-	-	-	2,3	3,7	0,2

* qiymat ifodasidan

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Afg'oniston (**18,4 %**), Qozog'iston (**18,0 %**), Eron Islom Respublikasi (**17,8 %**) va Pokiston (**11,0 %**) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

NAVOIY VILOYATINING IMPORTI

(2022- yil yanvar-aprel)




2022- yil yanvar-aprel oylarida import hajmi **183,3** mln. AQSH dollarini va 2021- yilning mos davriga nisbatan **76,2** % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**36,7** %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**27,2** %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**16,7** %) ga to'g'ri keldi.

XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2022- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida import qilingan tovarlar hajmi **178,2** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **5,1** mln. AQSH dollariga yetdi.

NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI *(yanvar-aprel, yillar kesimida)*




XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan % da
	2021	2022		
Jami import	240,7	183,3	76,2	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	8,0	7,3	92,2	4,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,6	2,5	151,5	1,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,1	9,2	73,3 b.	5,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	1,0	-	0,6
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	20,2	30,6	151,9	16,7
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	37,0	49,8	134,6	27,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	129,1	67,3	52,1	36,7
Turli xil tayyor buyumlar	30,5	10,5	34,4	5,7
Xizmatlar	14,2	5,1	36,1	2,8

Importning eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalar (**36,7 %**), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**27,2 %**), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**16,7 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**7,0 %**) hissasiga to'g'ri keladi.

Import qilinadigan tovar va xizmatlarning umumiy hajmining tuzilishini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 2021- yilning mos davriga nisbatan mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (**73,3** barobar), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**51,9 %**), nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari (**51,5 %**) va asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**34,6 %**) o'sgan.




NAVOIY VILOYATINING IMPORT HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)



Navoiy viloyatida 2022- yil yanvar-aprel oyida import hajmi **183,3** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.


MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI *(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)*

MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushining dinamikasi joriy davrda ushbu ko'rsatkich **43,9** va **56,1** % ni tashkil etdi.



Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Hindiston, Turkiya, Koreya Respublikasi va Germaniya) jami importning **87,8** % ini tashkil qiladi, bu **161,0** mln. AQSH dollarini tashkil etadi.

NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI *(2022- yil yanvar-aprel, % da)*



NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-aprel, yillar kesimida)



Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'tgan yilga nisbatan, % da	O'rni
	2021	2022		
Xitoy Xalq Respublikasi	22 533,0	52 936,4	2,3 b.	1
Qozog'iston	17 000,1	40 112,0	2,4 b.	2
Rossiya Federatsiyasi	64 248,3	37 622,7	58,6	3
Hindiston	847,1	9 016,1	10,6 b.	4
Turkiya	12 852,3	8 557,8	66,6	5
Koreya Respublikasi	11 101,5	7 914,8	71,3	6
Germaniya	3 888,3	4 840,1	124,5	7
Eron Islom Respublikasi	2 377,5	3 624,1	152,4	8
Kanada	2 559,1	2 315,5	90,5	9
Yaponiya	12 188,2	1 946,3	16,0	10
Tayvan	44,5	1 786,7	40,1 b.	11
AQSH	28 005,3	1 614,8	5,8	12
Finlyandiya	837,5	1 455,3	173,8	13
Fransiya	1 624,3	1 026,4	63,2	14
Turkmaniston	723,8	979,6	135,3	15
Qirg'iz Respublikasi	326,8	894,5	2,7 b.	16
Italiya	5 480,0	816,5	14,9	17
Litva	18 871,6	783,5	4,2	18
Chexiya Respublikasi	10 102,8	726,8	7,2	19
Ukraina	10 916,7	722,6	6,6	20

2022- yil yanvar-aprel oylari yakuni bo'yicha **52** ta davlatlar bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2022- yil yanvar-aprel)



Tuman va shahar nomi	Ming AQSH dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	183 326,3	76,2
Navoiy sh.	55 875,4	39,4
Zarafshon sh.	2 904,9	58,8
G'ozg'on sh.	1,7	2,3
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	101 394,4	135,1
Konimex	34,9	5,8
Qiziltepa	9 366,5	3,2 b.
Navbahor	1 906,2	90,3
Nurota	1 645,1	53,1
Tomdi	141,2	5,2
Uchquduq	8 697,2	4,1 b.
Xatirchi	1 067,5	43,1
Bo'linmaydigan hajm	291,3	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari

Karmana t. – 101 394,4

Navoiy sh. – 55 875,4

Qiziltepa t. – 9 366,5

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari

Tomdi t. – 141,2

Konimex t. – 34,9

G'ozg'on sh. – 1,7



Viloyatning import tarkibida eng yuqori ulushni Karmana tumani **55,3** % ulush bilan **101 394,4** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa G'ozg'on shahri **0,001** % ulush bilan **1,7** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, % da)


XSST tarkibi	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	0,6	3,3	4,0
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	0,5	0,7	1,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,1	0,1	5,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	0,6
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	13,6	8,4	16,7
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	15,8	15,4	27,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	60,9	53,6	36,7
Turli xil tayyor buyumlar	6,3	12,6	5,7
Xizmatlar	2,2	5,9	2,8

2022- yil yanvar-aprel oylarida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlarida 2021- yilning mos davriga nisbatan importning ulushi **15,4 %** dan **27,2 %** gacha, kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar importining ulushi **8,4 %** dan **16,7 %** gacha, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallarda esa **0,1 %** dan **5,0 %** gacha o'sdi.

2022- yil yanvar-aprel oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **5,1** mln. AQSH dollarini yoki jami import hajmining **2,8** % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **36,1** % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (**59,5** %), safarlar (turizm xizmatlari) (**0,2** %) va boshqa xizmatlar (**40,3** %) dan iborat bo'ldi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



Shu bilan, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib borayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi

Tashqi iqtisodiy faoliyat va

savdo statistikasi bo'limi

Tel.: (99879) 223-50-43